
Toshloqda “Sinf rahbarlari faoliyatini tizimli tashkil etish, muammolar va ularni bartaraf etish, istiqboldagi rejalari” mavzusida o‘quv-seminar bo‘lib o‘tdi.

Bugun tumandagi 4-umumiy o‘rta ta‘lim maktabida bo‘lib o‘tgan seminarda umumta‘lim maktablaridagi sinf rahbarlari, metod birlashmasi raislari ishtirok etdi.

Seminar ishtirokchilariga “Maktabda ta‘lim-tarbiya tizimida sinf rahbarining o‘rni”, “Maktabda sinf rahbarlari metod-birlashmasi faoliyatini tashkil etish, “Umumiy o‘rta ta‘lim muassasasining takomillashtirilgan namunaviy odob-ahloq qoidalarini amaliyotga tadbiq etishda sinf rahbarining ma‘suliyati” hamda “Ma‘naviy tarbiyaning metodologik asoslari: milliy qadriyatlarga sodiq yoshlarni tarbiyalash” mavzularida ma‘ruzalar qilindi.

Seminarda tuman IIB boshlig‘i podpolkovnik A.Kattabekov, tuman maktabgacha va maktab ta‘limi bo‘limi boshlig‘i A.Soliyev hamda tuman mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i podpolkovnik Sh.Hakimovlar yangi o‘quv yili oldidan tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish, tizimli muammolar va ularni bartaraf etish, istiqboldagi rejalarni belgilab olish masalalari ko‘rib chiqildi.

2024-08-16 14:36:57